OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PSIXIATRIYA KURSINING “ONG BUZULISHI SINDROMLARI. ASOSIY PSIXOPATOLOGIK SINDROMLAR. PSIXOFARMAKOTERAPIYA ASOSLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA FLIPPED CLASSROOM (O‘GIRILGAN DARS) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Yodgorov Jasurbek Jo‘rayevich
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: yodgorov.jasurbek@bsmi.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy tibbiy ta’lim tizimida psixiatriya kursining murakkab va yuqori darajada tushunishni talab qiluvchi mavzularini samarali o‘qitish jarayonida flipped classroom (o’girilgan dars) texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi. An’anaviy ma’ruza-uslubidagi ta’limdan farqli ravishda, flipped classroom modeli talabalarga o‘quv materialining nazariy qismini auditoriyadan tashqarida, ya’ni mustaqil ravishda, oldindan tayyorlangan elektron resurslar, videodarslar va matnli materiallar yordamida o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu esa auditoriya mashg‘ulotlarida amaliy, muammoli vaziyatlarga asoslangan, klinik holatlarni tahlil qilishga qaratilgan interaktiv metodlardan keng foydalanish imkonini yaratadi. Tadqiqot doirasida ong va uning buzilishlari, asosiy psixopatologik sindromlar (masalan, gallyutsinatsiyalar, ro‘y berayotgan voqealarni noto‘g‘ri talqin qilish, affektiv buzilishlar) hamda psixofarmakoterapiya asoslariga oid mavzularni talabalarga samarali o‘rgatishda flipped classroom texnologiyasining afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, klinik tafakkur va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi. Shuningdek, maqolada flipped classroom modeli asosida o‘quv jarayonini tashkil etishning bosqichlari, pedagogik dizayn, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv munosabatlar hamda o‘quv natijalarini baholash mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu metodikaning tibbiy ta’limda zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida qo‘llanish istiqbollarini asoslash imkonini beradi.

Kalit so’zlar: psixiatriya, flipped classroom, o’girilgan dars, ong buzilishi, psixopatologik sindrom, psixofarmakoterapiya, innovatsion ta’lim texnologiyalari.

Аннотация: В этой статье будет проведен углубленный анализ возможностей использования технологии перевернутого класса (перевернутого класса) в системе высшего медицинского образования для эффективного преподавания сложных и требующих высокого уровня понимания тем курса психиатрии. В отличие от традиционного обучения в

ISSN 3030-3907

лекционном стиле, модель перевернутого класса позволяет учащимся осваивать теоретическую часть учебного материала вне аудитории, то есть самостоятельно, с помощью заранее подготовленных электронных ресурсов, видеоуроков и текстовых материалов. Это позволяет широко использовать в аудиторных занятиях практические, основанные на проблемных ситуациях, интерактивные методы, направленные на анализ клинических случаев. В рамках исследования будут рассмотрены преимущества технологии перевернутого класса в эффективном обучении студентов темам, связанным с сознанием и его расстройствами, основными психопатологическими синдромами (такими как галлюцинации, неправильное толкование происходящего, аффективные расстройства), а также основам психофармакотерапии. Этот подход не только способствует развитию у студентов независимого мышления, клинического мышления и коммуникативных компетенций, но и повышает их вовлеченность в учебный процесс. Также в статье будут рассмотрены этапы организации учебного процесса на основе модели перевернутого класса, педагогического проектирования, интерактивных взаимоотношений ученика и учителя, механизмы оценки результатов обучения. Результаты исследований позволяют обосновать перспективы применения данной методики как современного педагогического подхода в медицинском образовании.
Ключевые слова: психиатрия, перевернутый класс, перевернутый класс, расстройства сознания, психопатологический синдром, психофармакотерапия, инновационные образовательные технологии.
Annotation: in this article, an in-depth analysis of the possibilities of using flipped classroom (turned lesson) technology in the process of effective teaching of complex and high-level topics of the course of Psychiatry in the higher medical education system. In contrast to traditional lecture-style education, the flipped classroom model allows students to master the theoretical part of instructional material outside the audience, i.e. independently, using pre-prepared electronic resources, video materials, and text materials. This makes it possible to make extensive use of practical, problem situation-based, interactive techniques aimed at clinical case analysis in audience training. The scope of the study examines the benefits of flipped classroom technology in effectively teaching students topics related to consciousness and its disorders, underlying psychopathological syndromes (e.g. hallucinations, misinterpretation of events occurring, Affective Disorders), and the foundations of psychopharmacotherapy. While this approach serves to develop independent thinking, clinical thinking and communicative competencies in students, it increases their activity in the educational process. The

ISSN 3030-3907

article also covers the stages of the organization of the educational process on the basis of the flipped classroom model, pedagogical design, interactive relations between the student and the teacher, as well as mechanisms for assessing the results of training. The results of the study make it possible to substantiate the prospects for the application of this methodology as a modern pedagogical approach in medical education.

Keywords: psychiatry, flipped classroom, turned lesson, mind disorder, psychopathological syndrome, psychopharmacotherapy, innovative educational technologies.

Kirish

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida pedagogik yondashuvlar doimiy rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, tibbiyot yo‘nalishidagi ta’limda nazariya bilan birga klinik-amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Psixiatriya fani murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj katta. Shulardan biri — flipped classroom texnologiyasidir. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar bilimini mustahkamlash va ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, tibbiyot ta’limi yo‘nalishlarida, jumladan psixiatriya kabi murakkab va keng qamrovli fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, flipped classroom (o’girilgan dars) texnologiyasi an’anaviy ta’lim modeliga muqobil sifatida o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish, tahliliy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishiga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyada auditoriya darslarida nazariy materiallarni bayon qilish emas, balki o‘rgangan bilimlarni muhokama qilish, tahlil etish va mustahkamlashga e’tibor qaratiladi.

Ushbu maqolada oliy tibbiy ta’lim muassasalarida psixiatriya kursining “Ong. Ong buzilishi sindromlari. Asosiy psixopatologik sindromlar. Psixofarmakoterapiya asoslari” mavzusini o‘qitishda flipped classroom texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari, bu texnologiyaning afzalliklari, amaliy natijalari va ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganiladi. Shu orqali talabalar faoliyatini faollashtirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish hamda psixiatriya bo‘yicha chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. So‘nggi yillarda oliy tibbiy ta’lim tizimida interaktiv va talabani faol jalb etuvchi pedagogik yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Jumladan, Flipped Classroom

ISSN 3030-3907

(o’girilgan dars) texnologiyasi – an’anaviy ma’ruzalarni uyda mustaqil o‘rganish, auditoriyada esa amaliy muhokama va tahlilga e’tibor qaratish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Psixiatriya kabi murakkab va klinik tafakkurni talab qiladigan fanlarda ushbu yondashuv ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o’girilgan dars modeli klinik tafakkurni shakllantirish, talabalar mustaqilligini rivojlantirish va mavzuni chuqur o‘zlashtirishda muhim o‘rin tutadi (Bergmann & Sams, 2012; Prober & Khan, 2013). Tibbiyot ta’limida bu texnologiyaning qo‘llanilishi bo‘yicha bir qancha xalqaro tadqiqotlar mavjud. Ularning aksariyati shuni ta’kidlaydiki, Flipped Classroom modeli o‘qituvchining faqat bilim etkazuvchisi emas, balki yo‘naltiruvchi va fasilitator rolini kuchaytiradi (Chen et al., 2017; Hew & Lo, 2018).

Mazkur maqolada “Ong. Ong buzilishi sindromlari. Asosiy psixopatologik sindromlar. Psixofarmakoterapiya asoslari” mavzusini o‘qitishda o’girilgan dars texnologiyasining samaradorligini aniqlash maqsadida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Adabiyotlar tahlili – Flipped Classroom texnologiyasi bo‘yicha mavjud ilmiy maqolalar, monografiyalar va ilmiy-amaliy tajribalarning tahlili asosida asosiy nazariy asoslar ishlab chiqildi.
2. So‘rovnoma va test sinovlari – talabalar bilim darajasi, darsga qiziqishi va fikr-mulohazalari o‘rganildi. Darsdan oldin va keyin o‘tkazilgan test natijalari taqqoslandi.
3. Statistik tahlil – o‘rganilgan natijalar matematik-statistik metodlar orqali tahlil qilindi (o‘rtacha qiymat, dispersiya, t-test va boshqalar).

NATIJALAR. Flipped Classroom texnologiyasi bo‘yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili natijasida mazkur texnologiyaning ta'lim jarayonidagi ustunliklari aniqlandi. Jumladan, talabalar mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish, dars vaqtida interaktiv usullardan samarali foydalanish va murakkab mavzularni chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanishi aniqlangan. Tahlil qilingan ilmiy manbalar asosida “Ong. Ong buzilishi sindromlari. Asosiy psixopatologik sindromlar. Psixofarmakoterapiya asoslari” mavzusi bo‘yicha dars materiallari va interaktiv topshiriqlar ishlab chiqildi.

Darsdan oldin va keyin o‘tkazilgan test sinovlari natijalari tahliliga ko‘ra, talabalarning bilim darajasida sezilarli o‘sish kuzatildi. O‘quvchilarning 83 foizi darsdan oldingi testda o‘rtacha 58% natija ko‘rsatgan bo‘lsa, darsdan keyingi testda bu ko‘rsatkich 84% ga etdi. So‘rovnoma natijalari esa talabalar mazkur metod orqali mavzuni chuqurroq o‘zlashtirganliklarini, darsga bo‘lgan qiziqish

ISSN 3030-3907

oshganligini va o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lganliklarini ko‘rsatdi. Talabalarning 90 foizi dars usulining an’anaviydan ko‘ra samaraliroq ekanini ta’kidladi.

Olingan ma’lumotlar asosida matematik-statistik tahlil o‘tkazildi. O‘rtacha qiymatlar taqqoslandi, dispersiyalar va Student t-testi yordamida natijalarning ishonchlilik darajasi aniqlangan. Test sinovlari oldi va keyingi natijalar orasidagi tafovut statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0.01$) deb topildi. Bu esa Flipped Classroom texnologiyasining samaradorligini matematik jihatdan ham tasdiqlaydi.

MUHOKAMA. Mazkur tadqiqot natijalari psixiatriya fanining murakkab va ko‘p qirrali mavzularidan biri — “Ong. Ong buzilishi sindromlari. Asosiy psixopatologik sindromlar. Psixofarmakoterapiya asoslari”ni o‘qitishda Flipped Classroom (o’girilgan sinf) texnologiyasidan foydalanish samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Tadqiqot doirasida an’anaviy dars usullari bilan solishtirilganda, o’girilgan dars modeli talabalarning darslarga tayyor holda kelishini, taqdim etilgan muammoli holatlarni chuqur va tahliliy yondashuv asosida o‘rganishini, shuningdek, kasbiy fikrlash va klinik qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanishini ta’minlagani kuzatildi. Talabalar tomonidan darsgacha tayyorlanib chiqilgan videoma’ruzalar, raqamli o‘quv materiallari va klinik holatlar tahlili asosida asosiy nazariy bilimlar o‘zlashtirildi. Bu esa dars vaqtida interaktiv metodlar — jumladan, muhokama, guruhiy ishlar, rolli o‘yinlar, real klinik holatlarni tahlil qilish kabi faol yondashuvlarga keng o‘rin ajratish imkonini berdi. Natijada o‘qituvchi o‘z faoliyatida fasilitator — ya’ni o‘quv jarayonini yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi sifatida ishtirok etgan bo‘lsa, talabalar esa bilimni faol ravishda o‘zlashtiruvchi subyektlar rolini egalladilar.

Shuningdek, mazkur texnologiya talabalarda mustaqil izlanish olib borish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, mas'uliyatli yondashuv va kasbiy qiziqishni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. O‘quv mashg‘ulotlari davomida olib borilgan muhokamalar va talabalar bilan amalga oshirilgan qayta aloqalar (feedback) natijalariga ko‘ra, Flipped Classroom modeli aksariyat talabalar tomonidan zamonaviy, interaktiv va yuqori samaradorlikka ega yondashuv sifatida baholandi. Biroq, ayrim talabalar darsga tayyorgarlik ko‘rish uchun qo‘shimcha vaqt talab etilishi, shuningdek, texnik vositalarning etarli emasligi kabi ayrim cheklovlarni ham tilga oldilar. Bu esa mazkur modelni joriy etishda individual yondashuv va qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani shakllantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari xalqaro tajribalar bilan uyg‘un bo‘lib, Flipped Classroom texnologiyasining tibbiy ta’lim, ayniqsa, yuqori darajadagi integratsiyalashgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talab qiluvchi psixiatriya fanida qo‘llanishi

ISSN 3030-3907

katta imkoniyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat chuqur nazariy bilimlarni shakllantirish, balki kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, klinik tafakkurni mustahkamlash va zamonaviy psixiatriyada ilg‘or yondashuvlarni egallashga xizmat qiladi.

Xulosa

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida psixiatriya kursining “Ong, ong buzilishi sindromlari, asosiy psixopatologik sindromlar va psixofarmakoterapiya asoslari” mavzusini o‘qitishda flipped classroom (o’girilgan dars) texnologiyasidan foydalanishning samaradorligi tahlil qilindi. Flipped classroom metodikasi ta’lim jarayonini o‘zgartirib, talabalarga mustaqil o‘rganish imkoniyatini yaratadi, bunda o‘quv materiallarini o‘rganish o‘quvchi tomonidan darsdan oldin amalga oshiriladi, amaliy faoliyat esa o‘qituvchi tomonidan olib boriladi. Bu metod psixiatriya sohasidagi murakkab mavzularni o‘zlashtirishda talabalar faol ishtirokini ta’minlaydi, ma’lumotlarni tahlil qilish, ularga amaliy qo‘llanilishini o‘rganish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Psixiatriya kursining “Ong, ong buzilishi sindromlari, asosiy psixopatologik sindromlar va psixofarmakoterapiya asoslari” mavzularini o‘qitishda flipped classroom texnologiyasining afzalliklari katta. Birinchidan, talabalarga nazariy materiallar bilan tanishish uchun ko‘proq vaqt ajratiladi, bu esa ularning o‘rganish jarayonida mustahkam asoslar yaratadi. Ikkinchidan, dars davomida amaliy mashg‘ulotlar, muammoli vazifalar, bahs-munozaralar va boshqa faoliyatlar orqali talabalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Uchinchidan, flipped classroom metodikasi o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yanada yaqin hamkorlikni ta’minlaydi, chunki o‘qituvchi nafaqat ma’lumotlarni etkazib beruvchi, balki talabalarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi maslahat beruvchi sifatida faoliyat yuritadi. Maqolada keltirilgan tahlillar va tajribalar, flipped classroom texnologiyasining psixiatriya ta’limiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini va uning talabalarning psixopatologik tushunchalarni chuqurroq anglashlariga yordam berishini ko‘rsatdi. Ushbu metodikaning samarali qo‘llanilishi, o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini ham oshirishga xizmat qiladi, chunki ular yangi texnologiyalarga moslashib, talabalarga ilmiy asoslangan yondashuvni taqdim etadilar.

Shunday qilib, flipped classroom texnologiyasining psixiatriya kursida qo‘llanilishi nafaqat o‘quvchilarni faolroq ishtirok etishga undaydi, balki ularning o‘rganish sifatini ham yaxshilaydi. Bu metodika, psixiatriya ta’limining yuqori samaradorligini ta’minlash va uning dolzarb mavzularini talabalarga aniq va tushunarli shaklda etkazish uchun muhim pedagogik yondashuv hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bergmann J, Sams A. In Flip your classroom; Reach every student, in every class, every day. ISTE Washington USA, 2012.
2. Gençer BG, Gürbulak N, Adıgüzel T. Eğitimde Yeni Bir Süreç: Ters-Yüz Sınıf Sistemi International Teacher Education Conference 2014, İstanbul
3. Abeysekera L, Dawson P. Motivation and cognitive load in the flipped classroom: definition, rationale and a call for research HERD 2015;34:1-14
4. Tan E, Brainard A, Larkin GL. Acceptability of the flipped classroom approach for in-house teaching in emergency medicine. Emerg Med Australas. 2015; 27: 453-9.
5. Bösner S, Pickert J, Stibane T. Teaching differential diagnosis in primary care using an inverted classroom approach: student satisfaction and gain in skills and knowledge. BMC Med Educ. 2015; 1;15: 63.
6. Gillois P, Bosson JL, Genty C, Vuillez JP, Romanet JP. The impacts of blended learning design in first ear medical studies.Stud Health Technol Inform. 2015; 210: 607-611.
7. Lage MJ, Glenn JP, Treglia M. Inverting classroom: A gateway to creating an inclusive learning enviroment J of Economic Education 2000;1;30-43
8. Galway LP, Corbett KK, Takaro TK, Tairyan K, Frank E. A novel integration of online and flipped classroom instructional models in public health higher education. BMC Med Educ. 2014; 14: 181.
9. Critz CM, Knight D. Using the flipped classroom in graduate nursing education. Nurse Educ. 2013;38: 210-3.
10. Schlairet MC, Green R, Benton MJ. The flipped classroom: strategies for an undergraduate nursing course. Nurse Educ. 2014; 39: 321-5.
11. Wong TH, Ip EJ, Lopes I, Rajagopalan V. Pharmacy students' performance and perceptions in a flipped teaching pilot on cardiac arrhythmias.Am J Pharm Educ. 2014; 78:185.
12. Moraros J, Islam A, Yu S, Banow R, Schindelka B. Flipping for success: evaluating the effectiveness of a novel teaching approach in a graduate level setting. BMC Med Educ. 2015; 28; 15:27.
13. Phillips CR, Trainor JE. Millennial students and the flipped classroom. Proceedings of ASBBS 2014; 21:519-530
14. Bergmann J, Sams A. Flipped Learning:Gateway to student engagement. 2014 1st ed. ISTE Washington, USA.
15. Tune JD, Sturek M, Basile DP. Flipped classroom model improves graduate student performance in cardiovascular, respiratory, and renal physiology. Adv Physiol Educ. 2013; 37: 316-320

ISSN 3030-3907

16. Fraga LM, Harmon J. The Flipped Classroom Model of Learning in Higher Education: An Investigation of Preservice Teachers' Perspectives and Achievement J Digital Learning in Teacher Education 2014; 1: 18-27

ISSN 3030-3907